

**PEDAGOGIK RAHBARLARDA LIDERLIK
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH
TEXNOLOGIYASINING MOHIYATI**

Xalqaro Nordik universiteti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

yo'nalishi magistratura 1-bosqich talabasi

Qo'ldasheva Sevara Berdiqu qizi

E-mail: s42813275@gmail.ru

[Tel:+998932915444](tel:+998932915444)

Annotatsiya. Zamonaviy ta'lim tizimida pedagogik rahbarlar shaxsiga qo'yilayotgan talablarning ortib borishi bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga puxta tayyorlash masalasini dolzarb muammo sifatida ilgari surmoqda. Ta'lim — shaxs kamolotining eng muhim bosqichi bo'lib, bu davrda pedagogik rahbarlarda bilim olishga bo'lgan qiziqish, mustaqil fikrlash va ijtimoiy xulq-atvor asoslari shakllanadi. Shu sababli, ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish dolzarb hisoblanadi. Bugungi kun ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar pedagogik rahbar shaxsiga qo'yiladigan talablarni tubdan o'zgartirmoqda. Zamonaviy rahbar nafaqat fan bilimlariga ega, balki pedagogik vaziyatlarni tahlil qila oladigan, mustaqil va tanqidiy fikrlaydigan, innovatsion yondashuvlarni qo'llay oladigan mutaxassis bo'lishi lozim. Mazkur maqolada pedagogik rahbarlarda liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyasining nazariy-metodologik asoslari va amaliy modeli yoritilgan. Tadqiqot transformatsion liderlik konsepsiyasi, kompetensiyaviy yondashuv hamda tizimli boshqaruv tamoyillariga asoslanadi. Ishda pedagogik rahbar liderlik kompetensiyasining

ilmiy –amaliy anjuman

strukturaviy modeli ishlab chiqilib, uni rivojlantirishning bosqichli texnologiyasi va samaradorlik mezonlari asoslab berilgan. Empirik natijalar taklif etilgan modelning ta'lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: pedagogik menejment, transformatsion liderlik, kompetensiyaviy yondashuv, boshqaruv samaradorligi, refleksiv faoliyat, innovatsion ta'lim.

Kirish. Muammoning dolzarbligi ta'lim tizimining modernizatsiyasi sharoitida pedagogik rahbar faoliyati an'anaviy ma'muriy boshqaruvdan strategik liderlik modeliga o'tishni talab etmoqda. Xususan, UNESCO tomonidan ilgari surilgan global ta'lim kun tartibida rahbarlarning transformatsion salohiyati ta'lim sifatining asosiy omili sifatida e'tirof etiladi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik rahbarlarda liderlik kompetensiyalarini tizimli rivojlantirish texnologiyasini ishlab chiqish zamonaviy pedagogika va ta'lim menejmentining ustuvor vazifalaridan biridir. Nazariy asoslar liderlik fenomenining ilmiy talqini James MacGregor Burns tomonidan ilgari surilgan transformatsion liderlik konsepsiyasiga borib taqaladi. Unga ko'ra, lider izdoshlari qadriyatlari va motivatsiyasini yuqori bosqichga ko'tarish orqali tashkilot rivojiga turtki beradi. Mazkur konsepsiya Bernard M. Bass tomonidan rivojlantirilib, liderlikning to'rt asosiy komponenti — ideallashtirilgan ta'sir, ilhomlantiruvchi motivatsiya, intellektual rag'batlantirish va individual yondashuv modeli ishlab chiqildi. Kompetensiyaviy yondashuv esa rahbarning bilim, ko'nikma, qadriyat va shaxsiy sifatlarining integrativ tizimi sifatida liderlikni talqin etadi. Bu yondashuv pedagogik menejmentda funksional vazifalarni samarali amalga oshirishning nazariy platformasi hisoblanadi.

Pedagogika fanida liderlik kompetensiyasi — bu pedagog yoki pedagogik rahbarning ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, jamoani ilhomlantirish,

strategik qarorlar qabul qilish va innovatsion o'zgarishlarni boshqarish qobiliyatlarini o'zida mujassam etgan integrativ kasbiy sifatdir.

Asosiy qism. Tadqiqot quyidagi metodologik tamoyillarga asoslandi, tizimlilik tamoyili – liderlik kompetensiyasini o'zaro bog'liq komponentlar majmui sifatida talqin qilish, shaxsga yo'naltirilganlik – rahbarning individual rivojlanish trayektoriyasini hisobga olish, refleksivlik – o'z-o'zini baholash va o'zini rivojlantirish mexanizmlarini joriy etish, faoliyatga yo'naltirilganlik – amaliy vaziyatlar asosida kompetensiyalarni shakllantirishdir. Empirik bosqichda diagnostik testlar, 360° baholash, ekspert tahlili va statistik qayta ishlash metodlari qo'llanildi. Pedagogik rahbar liderlik kompetensiyasining strukturaviy modelida taklif etilayotgan model quyidagi komponentlardan iborat. Aksiologik-komponent bu qadriyatlar tizimi, ijtimoiy mas'uliyat, pedagogik etika. Kognitiv-komponent bu strategik fikrlash, boshqaruv nazariyalarini bilish, analitik qobiliyat. Operatsion-komponentda qaror qabul qilish, delegatsiya, konfliktlarni boshqarish, loyiha boshqaruvi kiradi. Refleksiv-komponent bu o'z faoliyatini monitoring qilish, tahlil qilish va takomillashtirishdir. Mazkur komponentlar integratsiyasi pedagogik rahbarning professional-liderlik portretini shakllantiradi. Liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyasi ishlab chiqilgan texnologiya quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi. 1-bosqich – Diagnostik-prognostik rahbarning liderlik darajasi aniqlanadi, rivojlanish ehtiyojlari prognoz qilinadi. 2-bosqich – Loyihalash-konstruktiv. Individual rivojlanish dasturi ishlab chiqiladi; trening modullari va amaliy topshiriqlar tizimi belgilanadi. 3-bosqich – Faoliyatli-amaliy bo'ladi. Transformatsion liderlik treninglari, muammoli vaziyatlar tahlili, refleksiv seminarlar va mentorlik jarayoni amalga oshiriladi. 4-bosqich – Analitik-refleksiv bo'ladi. Natijalar monitoring qilinadi, samaradorlik indikatorlari (motivatsiya darajasi, jamoa kohezivligi, boshqaruv samaradorligi ko'rsatkichlari) asosida baholanadi. Pedagogik rahbar liderlik kompetensiyasining integrativ modeli ishlab chiqildi. Liderlikni

rivojlantirishning bosqichli texnologiyasi nazariy jihatdan asoslandi. Samaradorlikni baholash indikatorlari tizimlashtirildi. Transformatsion liderlik konsepsiyasi pedagogik menejment kontekstida adaptatsiya qilindi.

Pedagogik tadqiqotlarda pedagogik shart-sharoitlar tizimi deganda ma'lum bir kompetensiya yoki kasbiy sifatni samarali shakllantirish va rivojlantirishni ta'minlaydigan tashkiliy, mazmuniy, metodik, psixologik va ijtimoiy omillarning o'zaro bog'liq hamda integratsiyalashgan majmui tushuniladi. Liderlik kompetensiyasi murakkab integrativ tuzilma bo'lgani sababli, uni rivojlantirish ham alohida omillar emas, balki tizimli pedagogik ta'sir orqali amalga oshiriladi. Tizimli yondashuvga ko'ra, kompetensiya quyidagi komponentlarning birligida namoyon bo'ladi, motivatsion-aksiologik, kognitiv-strategik, kommunikativ-boshqaruv,refleksiv-prognostik. Demak, pedagogik shart-sharoitlar ham aynan shu komponentlarga mos ravishda qurilishi zarur. Liderlik kompetensiyasining rivojlanishi rahbar shaxsining ichki qadriyat yo'nalishlari va kasbiy motivatsiyasiga bog'liq. Transformatsion liderlik nazariyasi asoschisi Bernard Bass liderlikni motivatsiya va ilhomlantirish jarayoni sifatida izohlaydi. Ta'lim kontekstida esa Kenneth Leithwood maktab rahbarining liderligi o'quv natijalari va pedagogik muhitga bevosita ta'sir ko'rsatishini asoslab bergan. Pedagogikada liderlik kompetensiyasining tarkibiy tuzilmasi ilmiy adabiyotlar tahliliga ko'ra, pedagogikada liderlik kompetensiyasi ko'p komponentli integrativ tizim sifatida talqin qilinadi. Motivatsion-aksiologik component kasbiy qadriyatlar, mas'uliyat va tashabbuskorlik, ta'lim sifatini oshirishga intilishdir. Kognitiv-kompetensiyaviy komponentiga boshqaruv nazariyasi bilimlari, strategik rejalashtirish, pedagogik innovatsiyalarni bilish jda muhim hisoblanadi. Kommunikativ-faoliyatli komponenti jamoa bilan samarali muloqoti, konfliktlarni boshqarish, hamkorlikni tashkil etish alohida o'ringa ega. Refleksiv-prognostik component esa o'z faoliyatini tahlil qilish, o'zini baholash, rivojlanish strategiyasini belgilash zarur. Ushbu komponentlar

o‘zaro bog‘liq holda pedagogik rahbarning umumiy kasbiy samaradorligini belgilaydi.

Xulosa. Pedagogikada liderlik kompetensiyasining ahamiyatida xalqaro tadqiqotlarda, jumladan OECD hisobotlarida ta‘lim sifati bilan rahbarlik salohiyati o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjudligi qayd etilgan. UNESCO esa ta‘lim tizimining barqaror rivojlanishida liderlik kompetensiyasini ustuvor omil sifatida ko‘rsatadi. Pedagogik nuqtai nazardan liderlik kompetensiyasi, ta‘lim jarayonini innovatsion boshqarish, pedagogik jamoada ijobiy iqlim yaratish, o‘quvchilar natijalarini yaxshilash, strategik rivojlanishni ta‘minlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Pedagogik rahbarlarda liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish ta‘lim tizimi samaradorligini oshirishning strategik omilidir. Taklif etilgan texnologiya rahbarning aksiologik, kognitiv, operatsion va reflektiv komponentlarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur modelning amaliy joriy etilishi ta‘lim muassasalarida innovatsion boshqaruv madaniyatini shakllantirish va sifat ko‘rsatkichlarini barqaror oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Burns J. M. (1978). Leadership. New York: Harper & Row.
2. Bass B. M. (1985). Leadership and Performance Beyond Expectations. New York: Free Press.
3. Bekmurodov, Sh. (2019). Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: TDPU nashriyoti. – 224 b.
4. Bellanca, J. & Brandt, R. (2010). 21st Century Skills: Rethinking How Students Learn. Bloomington, IN: Solution Tree Press. – 247 b.
5. Brown, J. S., Collins, A., & Duguid, P. (1989). Situated Cognition and the

Culture of Learning. Educational Researcher, 18(1), 32–42.

6.Clark, B. R. (1998). Creating Entrepreneurial Universities: Organizational Pathways of Transformation. Paris: UNESCO & IAU. – 155 b.